



HUDUDLARNING SOLIQ SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING SAMARADORLIGI TAHLILI

Turdikulova Gulmira

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0007-3983-0320

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududlarning soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Hududlarni soliq salohiyatini oshirishga doir budget-soliq siyosatiga doir chora-tadbirlar tizimi, hududlarni soliq to'lay olish qobiliyati, ularni oshirish va soliqlarni undirish jarayonida sodir bo'ladigan munosabatlar xorij tajribasi asosida yoritib berilgan. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda hududlar soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar guruhlarga ajratilgan holda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: soliqlar, soliq salohiyati, mahalliy byudjet, yuridik shaxslar, soliq tushumlari, soliq tekshiruvlari.

АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА НАЛОГОВЫЙ ПОТЕНЦИАЛ РЕГИОНОВ

Турдикулова Гульмира

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируются макроэкономические показатели, влияющие на налоговый потенциал регионов. На основе зарубежного опыта объяснена система мер бюджетно-налоговой политики по повышению налогового потенциала регионов, способности регионов платить налоги, отношения, возникающие в процессе их повышения и сбора налогов. Проанализированы факторы, влияющие на налоговый потенциал регионов при формировании доходов местных бюджетов, путем разделения их на группы.

Ключевые слова: налоги, налоговый потенциал, местный бюджет, юридические лица, налоговые поступления, налоговые проверки.

ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF FACTORS AFFECTING THE TAX POTENTIAL OF REGIONS

Turdikulova Gulmira

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes macroeconomic indicators affecting the tax potential of regions. The system of budget-tax policy measures to increase the tax potential of the regions, the ability of the regions to pay taxes, the relations that take place in the process of their increase and tax collection are explained on the basis of foreign experience. Factors affecting the tax potential of regions in the formation of local budget revenues were analyzed by dividing them into groups.

Key words: taxes, tax capacity, local budget, legal entities, tax revenues, tax audits.

Kirish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda avvalombor, soliq siyosati samaradorligini oshirish, soliq turlari va ularning amal qilish mexanizmini soddalashtirish, soliq yuki xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida optimal taqsimlash soliq tizimi oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi davlat boshqaruvida mahalliy budjetni to'ldirish siyosatini samarali tashkillashtirish har bir hududni iqtisodiy-ijtimoiy yuksalishidagi muhim jihatlarni aniqlashda asosiy o'rinni egallaydi. Budjetga soliqlarni va to'lovlarni o'z vaqtida tushishi bo'yicha hududlar salohiyatini aniqlash, mahalliy budjet daromadlarini shakllantiruvchi omillarni to'lov qobiliyatini oshirish va kelib chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy salbiy natijalarni oldindan aniqlash zaruriyat hisoblanadi. Natijada, hududlarni soliq to'lay olish qobiliyatini aniqlash, qanday qilib budjet daromadlarini ko'paytirish mumkin degan savollar paydo bo'la boshlaydi. "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo'nalishda "milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" sifatida belgilandi. Albatta bu yo'nalishning 29-maqsadida 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish vazifasi qo'yildi⁶⁹.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliq salohiyati tushunchasi 1970-yillarda A.Volkov tomonidan talqin qilingan. U o'z qarashlarida soliq potensialining absolyut va nisbiy shakllarini farqlash lozimligini ta'kidlab, absolyut soliq potensialini "moliyaviy resurslar o'sishi bilan birday" talqin etgan. Pelevin fikriga ko'ra, bugungi kunda soliq salohiyatini baholash ahamiyatli topshiriqlardan biri hisoblanadi, bu nafaqat budjetga tushadigan solikli tushumlarni o'sishini, shuningdek ushbu hududning soliq va boshqa tushumlari tushushi prognoz darajasini aniqlash imkonini beradi. Chun-Yan Kuo soliq salohiyatini soliq to'lovchilarning soliq to'lay olishi yoki davlatning daromad olish qobiliyati tarzida ifodalaydi⁷⁰. A.M.Lyando ham soliq munosabatlarini umumiy pul munosabatlaridan ajratib olishga harakat qilib "soliq sig'imi" tushunchasini izohlashga harakat qilgan va "soliq sig'imi koeffitsenti"ni qo'llashni taklif etgan (Xudoyqulov, 2019). Biroq u ham soliq sig'imi tushunchasini moliyaviy resurslar tushunchasi bilan birday ifoda etgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlar tomonidan ham hududlar soliq salohiyati haqida fikr-mulohazalar va yondashuvlar bildirilgan. Jumladan, F.Mirzayev o'z ilmiy izlanishlarida "soliq yig'iluvchanligi darajasini hududlar soliq salohiyati asosida baholash uslubini taklif etgan hamda hududning joriy hisobot davri uchun soliq salohiyatini hisoblash bo'yicha o'z yondashuvini bildirgan". A.Islamkulovning fikricha «hudud soliq potentsiali soliq to'lovchilar soliq potentsialidan iborat bo'lib, mahalliy byudjetlar solikli daromadlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy, yirik soliq to'lovchilarning soliq potentsialidan tarkib topadi (Bozorova, 2012).

U.U.Pardayev davlat budjeti daromadlarini rejalashtirishda soliq potentsialidan foydalanish zarurligini e'tirof etgan holda, soliq potentsiali yuzasidan o'z qarashlarini ilgari surgan (Malikov, 2002). O.Meyliyev soliq potentsialini hududlar miqyosidagi soliq yig'imlarining mumkin bo'lgan yuqori darajasini aks ettiruvchi va budjet resurslari fondini hosil qilish bilan bog'liq bo'lgan davlat, korxonalar va fuqarolar o'rtasida paydo bo'luvchi imperativ moliyaviy munosabatlar yig'indisini tavsiflovchi iqtisodiy tushunchadir (Farmon, 2022) deb aytib o'tgan.

⁶⁹ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari <https://soliq.uz/page/asosiy-korsatkichlar>

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, ilmiy va umumiy tahlil, qiyoslash, o'zaro solishtirma tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ma'lumki, davlat budget daromadlari umumdavlat va mahalliy soliqlardan tashkil topgan bo'lib, mahalliy budget daromadlari bazasini respublikamizda soliq tushumlari tarkibida mol-mulk va yer solig'i salmog'i qanday ekanligi 1-jadval ma'lumotlarida tahlil qilindi.

1-jadval**O'zbekistonda soliq tushumlari tarkibida mol-mulk va yer solig'ining salmog'i(%) da⁷¹**

	Soliq turlari	Yillar								
		2014	2015	2016	2017	2018	2019	2021	2022	2023
1	Jami soliq tushumlari:	100	100	100	100	100	100	100	100	100
	shundan									
1.1	Mol-mulk solig'i	3,3	4,6	4,6	4,5	3,5	1,8	1,9	2,7	3
1.2	Yer solig'i	2,6	2,6	2,2	2,5	2,0	1,8	3,1	3,6	4

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2014-yilda jami soliq tushumlari tarkibida mol-mulk solig'i 3,3 foizni, 2018-yilda 3,5 foizni, 2023-yilda 3 foizni tashkil etgan. Shuningdek yer solig'i jami soliq tushumlari tarkibida 2014-yil 2,6 foizni, 2018-yil 2 foizni, 2023-yil 4 foizni tashkil etgan. Mol-mulk va yer solig'ini soliq tushumlarida ulushini o'zgarishining asosiy sababi soliq stavkasini pasaytirilishi va soliq bazasini o'zgartirilishi bilan izohlash mumkin.

Hudud soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar turli manbalarda turlicha keltirilganligini ko'ramiz. Xususan, budget daromadlari barqarorligini ta'minlashda hududlar soliq salohiyatini oshirish yo'nalishlari borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan L.A.Bozorovning ta'kidlashicha, soliq salohiyati iqtisodiy tuzilma va uning soliqqa tortiladigan, soliq bazalari orqali aniqlanadigan resurslar bilan ta'minlanganligi bilan xarakterlanadi hamda mahalliy budgetlar daromad qismi bazasining shakllanishiga ta'sir qiladi. O'z navbatida, hududlar soliq salohiyatiga ham birqancha omillar o'zining ta'sirini o'tkazadi: huquqiy-normativ hujjatlar, ishlab chiqarish jarayoni, xo'jalik yurituvchi subektlar, infratuzilma holati, xom-ashyo resurslari.

2-jadval**Respublika bo'yicha 2024-yil 1-mart holatiga soliq organlarining budgetga tushumlari to'g'risida hududlar kesimida(mlrd so'm) (Meyliyev, 2018)**

Soliq turlari nomi	Yil boshidan tushum
Respublika bo'yicha jami	28 067,9
Shu jumladan:	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi	17 507,5
Hududlar jami	10 560,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	444,8
Andijon viloyati	473,9
Buxoro viloyati	527,0
Jizzax viloyati	333,6
Qashqadaryo viloyati	617,4
Navoiy viloyati	315,8
Namangan viloyati	463,6
Samarqand viloyati	758,4
Surxondaryo viloyati	466,7
Sirdaryo viloyati	240,4
Toshkent viloyati	966,8
Toshkent shahri	3 751,3
Farg'ona viloyati	756,6
Xorazm viloyati	444,3

⁷¹ <https://www.imv.uz/news/category/yangiliklar/post-883>

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, hududlar kesimida 2024-yil 1-mart holatiga ko'ra eng ko'p soliq tushumi bo'yicha Toshkent shahri 3751,3 mlrd so'm bilan yetakchilik qilmoqda, undan keyingi o'rinlarda Toshkent viloyati (966,8), Farg'ona viloyati (756,6) va Samarqad viloyatlari (758,4) turibdi. Eng past ko'rsatkichni Sirdaryo viloyati 240,4 mlrd so'm bilan ko'rsatyapdi.

3-jadval ma'lumotlaridan namoyon bo'ladiki, davlat budget daromadlari 2013-yildan 2023-yilgacha bo'lgan oraliqda o'sish tendensiyasiga ega va davlat budget daromadlarining katta qismini ko'rsatilgan 11 yillikda qo'shilgan qiymat solig'i tashkil etgan bo'lib, 2013-yil 7552475,2 mln so'mdan 2023-yil 57 885,3 mlrd so'mga oshgan. Shuningdek 2021-yildan boshlab aylanmadan olinadigan soliq joriy etilishi ham davlat budgetini to'ldirishga o'z hissasini qo'shdi va 2023-yil 2 407,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

3-jadval

Davlat budjeti daromadlari⁷²

No	Ko'rsatkichlar	2013	2015	2017	2019	2021	2022	2023
I.	Daromadlar	25633462,6	35 840 738,5	48 265,9	112 057,5	164 799,4	201 863,7	231 721,3
1	Bevosita soliqlar	6353711,1	8 798 449,4	11 539,4	31 676,8	58 930,4	64 447,1	73 103,6
1.1	Foyda solig'i	1038794,9	1 180 493,4	1 475,5	16 360,6	38 363,3	37 649,9	40 778,9
1.2	J.S.H.O.D.S	2717292,5	3 800 706,9	4 876,4	12 668,5	18 917,7	24 284,5	29 917,4
1.3	Aylanmadan olinadigan soliq					1 649,4	2 512,7	2 407,3
2	Bilvosita soliq	13398613,5	19 193 757,3	26 133,2	46 427,2	56 290,4	71 390,2	83 325,8
2.1	Q.q.s	7552475,2	10 850 951,8	14 685,8	33 809,8	38 439,0	52 189,4	57 885,3
2.2	Aksiz solig'i	4168267,7	5 618 446,4	7 449,2	10 314,7	13 086,5	13 455,0	15 834,4
2.3	Bojxona boji	1007377,2	1 481 504,7	1 707,4	2 302,7	4 764,9	5 745,7	9 606,1
3	Mol-mulk solig'i	1011553	1 393 029,3	2 129,7	2 360,2	2 457,3	4 015,4	5097,7
4	Yer solig'i	583398,6	750 088,8	1 091,8	2 313,2	4 082,8	5 305,9	6 890,1
5	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	2190865,3	2 514 558,1	3 474,1	14 692,8	15 811,9	13 887,4	15 300,3

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda soliq siyosati sohasida ko'plab o'zgarishlar bo'lmoqda va bu asosan soliq potensialini aniqlash, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq hisobotlarini tubdan qisqartirga qaratilgan. Amalga oshirilayotgan ushbu chora-tadbirlarning asosiy maqsadlaridan biri bu yashirin iqtisodiyotni yo'qotib, soliqlarning o'z vaqtida yig'ilishini oshirish va budget daromadlar bazasini kengaytirishdir. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash va soliqlarni undirishni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni berib o'tamiz:

- Soliqlarni undirishda xorij tajribasidan foydalanish. Biz bugungi kunda ko'plab islohotlar o'tkazayotganligimiz sababli rivojlangan davlatlar tajribasidan muvofaqatli o'tgan usullardan foydalanishimiz zarur;

- Bugungi kunda mamlakatimizda soliq sohasida tez-tez o'zgartirishlar kiritilmoqda va bu soliq to'lovchilarga ko'plab noqulayliklar tug'diradi, ularning soliq savodxonligini pasaytiradi. Shu sababli biz qat'iy belgilangan soliq tizimiga o'tishimiz zarur;

- Mahalliy soliqlar bo'yicha soliq solinadigan obektlarning to'liq hisobini olish va hisoblash mexanizmini takomillashtirishda soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish.

⁷² O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi sayti ochiq ma'lumotlari asosida.

Adabiyotlar / Литература/ Reference:

Bozorova L.A. (2012) Byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlashda hududlar soliq salohiyatini oshirish yo'nalishlari. //Iqtisod va moliya /экономика и финансы,. – № 12. – Б.64-67.

Farmon (2022) 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

Malikov T.S. (2002) Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, -204 b.

Meyliyev O. (2018) Hududiy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda soliqlarning ta'sirchanligini oshirish masalalari, Iqtisodiy fanlari falsafa doktori (Doctor of philosophy) ilmiy darajasini olish uchun e'zilgan dissertatsiyasi avtoreferati.

Xudoyqulov S. (2019) Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, – 77 b.